



MAVZU:ERTAK VA ADABIY ERTAKLAR QIYOSI.

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi Ismoilova Muhayyo

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarining shakllanishi, mazmuni, tili va badiiy xususiyatlari lingvistik hamda madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Ertaklarda xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari va estetik qarashlari mujassam bo'lib,ularni o'rganish milliy tafakkurni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ertaklarning tarjimasi, milliy koloritni saqlash muammolari, shuningdek, zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ertak, lingvomadaniyatshunoslik, stereotip, antroponim, tarjima, sehrlı buyum, realiya, konsept, tilshunoslik.

KIRISH. O'zbek xalq ertaklari asrlar davomida og'zaki ijodiy an'analar asosida shakllangan, xalq tafakkuri va madaniyatining o'ziga xos ifodasi bo'lgan badiiy namunalardandir. Bu janr xalqning turmush tarzi, diniy qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, zamonlar osha sayqallanib, takomillashib kelmoqda. Ertaklarning tili, obrazlari va syujetlaridagi milliylik ularni lingvistik va madaniy tadqiqotlar obyektiga aylantiradi. So'nggi yillarda ertaklarning lingvomadaniy, kognitiv, qiyosiy hamda tarjimaviy jihatdan o'rganilishi dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli, ertak janrining lingvistik tahlili xalq tafakkurini ochib beruvchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqiga xos ertak atamasining davr nuqtayi nazaridan qachondan beri nutqda qo'llanib kelinayotganligini aniq ko'rsatish qiyin. Xalq orasida mashhur (eng ko'p tinglanadigan (ijro etiladigan) ertaklarning ham qaysi davrdan og'izdan og'izga



o‘ta boshlaganini, dastlabki asl mazmunini bilish imkonsiz. Chunki asrlar o‘tishi bilan ertaklar mazmuni ertak aytuvchilar tomonidan o‘zgartrilishi, sayqallanishi, zamonga mos holda o‘zgartirilishi mumkin. Bu haqida T.A.Kazakova “qahramonlik haqidagi epik hikoyalarni yoki ajoyib qahramonning ertak davomida shohlikning qorong‘i kuchlar bilan kurashi haqidagi ertaklarni yaxshi ko‘radilar. Boshqalar esa aqlli askarni va shafqatsizlarcha masxara qilinadigan ochko‘z janob yoki shafqatsiz ruhoniylar haqidagi satirik ertaklarni afzal ko‘radi. Ba‘zi hikoya (ertak)chilar o‘zlarining o‘lchovli hikoyalarini xotirjam va befarqlik bilan olib boradilar, boshqalar ertakni “turli xil ovozlarda” aytib berishadi, uni jonli etishadi. Ba‘zilar ajoyib an’anaga qat’iy rioya qilishadi va ertakni qanday eshitgan bo‘lsa, xuddi shunday yetkazishga intiladi. Ba‘zilar esa ertak aytishda erkinlikka intilishadi va har safar go‘yo yangidan ertak yaratadilar”, deb ta’kidlaydi. O‘zbek xalqi hayotida ertaklar tarixi qadimiy. Xususan, XI asr yozma yodgorligi hisoblangan “Devonu lug‘otit-turk”da “etuk” deb qayd etilgan: “Этүк – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi”. Bu atama “ertak”, “ertaki”, “irtaki” shaklida turkiy xalqlarda hayotida keng qo‘llaniladi. Xususan, o‘zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda keng tarqalgan ushbu atama xalq og‘zaki badiiy ijodining to‘qima va xayoliy uydirmaga asoslangan, sarguzasht, fantastik talqin va maishiy mazmundagi epik turga mansub asar ma’nosida qo‘llaniladi. “Ertak epik turga mansub qadimiy janrlardan biri bo‘lib, xalq orasida g‘oyat keng tarqalganligi, asrlar davomida shakllangan milliy-madaniy qadriyatlar, xalqning turmush-tarzi, an’analari va urf-odatlarini o‘ziga xos tarzda epik talqin qiladigan, asosan, professional ijrochilar – ertakchilar tomonidan nasriy usulda, og‘zaki tarzda hikoya etish orqali ommalashishi, yaxlit poetik tizim sifatida shakllanganligi, o‘ziga xos badiiy struktura va motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy voqelikni xayoliy uydirma, fantastik talqin orqali ifoda etishi bilan xarakterlanadi. Ertak folklorning afsona, rivoyat, naql, latifa singari janrlariga yaqin turganligi sababli folklorshunoslikda bu tip xalq ijodi namunalari “xalq nasri janrlari” silsilasida ham



tasniflanadi”. Xullas, ertak o‘zbek xalqi hayotida juda qadimdan mavjud bo‘lib, xalq hayoti, tili, madaniyati, dini va yashash tarzini o‘zida mujassamlashtirgan janr hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida xalq ertaklari tilining lingvistik tahlili o‘tgan asrda tilshunoslar diqqatini tortdi. Bu esa o‘zbek tadqiqotchilarining ham ertak matnlari ustida ilmiy izlanishlar olib borishga undadi. O‘zbek xalqining tarixini o‘zida aks ettirgan xalq ertaklarini jamlash, to‘plam sifatida nashr etish o‘tgan asrning ikkinchi choragida folklorshunoslar tomonidan amalga oshirildi. O‘zbek folklorshunosligidagi ertakchilik an‘analarining mavjud ekanligi va ertaklar tahliliga oid dastlabki tadqiqotlar “XX asrning 30-yillaridan to hozirgi paytgacha yozib olinganligiga diqqat qilsak”, ertaklar tilini lingvistik tadqiq qilish uchun yetarlicha manba mavjudligini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Xalqimizga xos bo‘lgan qadimiy madaniyatimiz va o‘zbek tilining lisoniy imkoniyatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish, milliy-madaniy merosimizni asrashga qaratilgan ertaklarining ilmiy tadqiqi folklorshunoslikdan tashqari pedagogika va tilshunoslik sohasida ham amalga oshirildi. Bu tadqiqot ishlarining aksariyati mustaqillik yillariga to‘g‘ri keldi. Ertaklar tilini lingvistik tadqiqiga oid ishlar bugungi o‘zbek tilshunosligi uchun muhim hisoblangan ishlardan biri sifatida N. Dosanovning tadqiqot ishini ko‘rsatishimiz mumkin. Tadqiqotda xalq ertaklarimiz tilida mavjud aniqlovchilarning ifodalanishi, sintaktik xususiyatlari, ma’no va ifoda xususiyatlarining o‘ziga xosligi, qolip shaklidagi aniqlovchi birikmalarning qo‘llanishi, ertaklar tarkibidagi ayrim aniqlovchilarning sifatdoshli murakkab so‘z birikmalari va predikativli murakkab so‘z birikmalari shaklida kela olishi, xalq udumlari bilan bog‘liq raqamlarning aniqlovchi vazifasidagi ma’no xususiyatlarini tahlil qiladi. “Zamonaviy tilshunoslikda ertak, rivoyat, mif, afsona kabi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq jihatlarga nisbatan yangicha yondashuvlar, millatlar urf-odatlarining o‘ziga xosligi, xalq ertaklari konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb



etmoqda". Bu esa o'zbek xalq ertaklarini lingvomadaniy aspektda tadqiq qilish lozimligini ko'rsatmoqda. Mana shunday ishlardan biri sifatida Sh.N.Rahmatullayevning o'zbek xalq ertaklaridagi antroponimlarning lingvomadaniy jihatlariga bag'ishlangan tadqiqot ishini ko'rsatishimiz mumkin. Tadqiqotchi ertaklardagi antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslarini semantik jihatdan tasnif qilar ekan, ertaklarda mavjud antroponimlarda animistik, totemistik, fetishistik motivli ismlarning mohiyatiga, genezisiga alohida to'xtalib o'tadi. Ertak qahramonlarining nomlanishigda biror belgi bilan tug'ilishi, inson tana a'zolarida ortiqlik alomatining mavjudligi hamda tabu, evfemizm, disfemizm kabi til hodisalarining ertak qahramonlarining nomlanishidagi o'rni batafsil tahlilga tortiladi. Shuningdek, ertaklaridagi antroponimlarning semantik tabiati, morfologik xususiyatlari, qaysi leksik qatlamga oidligi misollar orqali ko'rsatib beriladi. Ertaklarining lingvistik tadqiqiga doir bir qancha maqolalar e'lon qilindi. Ammo ertak janrining lingvistik xususiyatlari to'laligicha hali tadqiq etilmagan. Xususan, S.Israilova ertak janrini tasnif qilish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilganligi, biroq tilshunoslikda xalq ertaklarining lingvistik xususiyatlari yetarlicha tadqiq qilinmaganligi qayd etib o'tiladi. B.Kilichov va Sh.Rahmatullayev tomonidan e'lon qilingan maqolasi o'zbek xalq ertaklaridagi mashhur antroponimlarni nomlilik belgisi, antropoetonimlar, ism berishda kelajagi va taqdirini Ollohdan so'rash, nisbat berish, bolaning oiladagi tug'ilish navbati bilan bog'liq o'rni tadqiq qilishga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazovor. K.Abdulloyeva ertaklarning lingvomadaniy va stilistik tadqiqiga bag'ishlangan maqolasida "til va madaniyatning lingvomadaniy mazmun-mohiyatini jamiyatdagi lingvistik omillarning mavjud bo'lishi bilan bog'laydi hamda lingvomadaniy yondashuv natijasida matnda madaniy va lingvistik talqin yuzaga kelishi, bu orqali esa uni yaratgan xalqning milliy va madaniy belgilari aniq ochib beriladi" degan fikrni ilgari suradi.



Xulosa.O‘zbek xalq ertaklari nafaqat og‘zaki ijodiy an‘analar asosida shakllangan badiiy asarlar, balki xalqning tarixiy, madaniy va lingvistik merosining beqiyos ifodasidir. Ularning til va obrazlaridagi milliylik, syujetlarning epik va fantastik jihatlari ertaklarni nafaqat folklor, balki tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida ham tadqiq qilish uchun qimmatli manba qiladi. Shu bilan birga, ertaklarda sehrlı buyumlar va obrazlarning lingvomadaniy jihatlari tadqiq etilishi badiiy asarlarning mazmun va strukturaviy boyligini yanada ochib beradi. Umuman olganda, o‘zbek xalq ertaklarini lingvistik va madaniy jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalq madaniyati va mentalitetini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. – 129 б.

2.Джумаева Н.Д. Инглиз ва ўзбек халқ эртакларида сеҳрли предметлар образлантирилишининг мотивацион хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореп. – Бухоро, 2022. – 52 б.

3.Досанов Н.Х. Ўзбек халқ эртаклари тилида аниқловчилар. Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 1994. – 141 б.

4.Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2016. – 233 б.

5.Казакова Т.А. Практические основы перевода english – russian. “издательство союз”. Санкт-Петербург, 2001. – 320 с.

6.Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртакларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 230-235.



7. Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1 том. – Тошкент: Фан, 1960. – 498 б.
8. Юсупова Х.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртаклар, латифалар мисолида). Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 28 б